

## **PUDRAT SHARTNOMASI**

23«8»2022 yil.

135-4-66-XT/2022-son

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan Chiroqchi tuman xalq ta’limi bo‘limi tomonidan Nizomga asosan F.Jumanov bir tomondan va keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladigan "BEGIN COOPERATION WITH US" MCHJ nomidan Nizom asosida direktori O.Jumaqulov ikkinchi tomondan mazkur loyixa shartnomasini tuzdilar. I. Shartnoma predmeti

### **1. SHARTNOMA PREDMETI**

1. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq shartnoma Chiroqchi tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 4-sonli umumta’lim maktabini Sportzalini va Sinfxona pollarini joriy ta’mirlash ishlarini smeta hujjatlarida ko‘zda tutilgan holda bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to‘lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### **2. SHARTNOMA BAHOSI**

2. Mazkur shartnoma eng yaxshi taklifini aniklash komissiyasining qarori bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar va ajratmalarini o‘z ichiga olgan holda joriy narxlarda QQS bilan 146.717.367 (Bir yuz qirq olti million yetti yuz o‘n yetti ming uch yuz oltmish yetti) so‘mni tashkil etadi. 3. Qurilishning shartnomaviy narxlarini o‘zgartirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. 4. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi. III. Pudratchining majburiyatlari. 5. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning 1-bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: - barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga “1” ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda inshoot narxidagi ishlarni eng kamida 50% ni o‘zining kuchlari bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish; - tanlov natijasi bo‘yicha ishlar boshlangan kundan e‘tiboran obyektini 40 kunda topshirish; - qurilish maydoniga zarur qurilish materiallar, buyumlar, konstruksiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarini yetkazib berish, ularni qabul qilish tushirish omborga joylash va saqlash; - qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish; - buyurtmachini Pudrat shartnomalari tuzilishi davomida yordamchi Pudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mazmuni, yordamchi Pudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish; - qurilish tavakkalchiligini sug‘urta qilish. 6. Mazkur shartnoma bo‘yicha obyektini foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnomaga imzo chekilgandan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari, asbob-uskunalari, transport vositalari,



anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlari, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish qurilish maydonini qo'riqlanishini ta'minlash; qurilish jarayonida jalb qilingan ishchi xodimlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, ijtimoiy himoyasi va texnik xafsizligini ta'minlash majburiyatini oladi. 7. Pudratchi obyekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Obyektning Buyurtmachiga topshirilgunga qadar, obyektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi. 8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning zarur tarzda bajarilishi hamda obyektning foydalanishga topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **IV. Buyurtmachining majburiyatlar**

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun buyurtmachi: - mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini, obyekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish; - ishlar bajarilishi ustidan doimiy qurilishda texnik nazorat va mazkur shartnomaga muvofiq Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish; - Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; - moliyalashtirish jadvali 2 ilovaga muvofiq Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; - mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab, bir oy davomida Pudratchiga pudrat ishlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish; - mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi; 10. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bundan Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

#### **V. To'lovlar va hisob-kitoblar**

11. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida teng ulushlarga (30 foizdan) bo'lgan holda avans o'tkazadi, bu 44015210(Qirq turt million un besh ming ikki yuz o'n) so'mni tashkil etadi. 12. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (2-ilova) 13. Joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar sifati tekshirilgandan keyin, berilgan avansni hisobga olgan holda, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallariga muvofiq obyektning umumiy shartnomaviy joriy qiymatining 95 foizigacha doirasida amalga oshiriladi. 14. Obyektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 5 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va obyekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan keyin - ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida amalga oshiriladi.

#### **VI. Ishlarni bajarish**



15. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq, birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi. 16. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – Texnik nazoratchi tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob uskunalar shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi. 17. Texnik nazoratchi ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davr mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir. 18. Pudratchi Texnik nazoratchi ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik nazoratchi Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha choralar ko'radi. 19. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning 71-bandida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan obyektida ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi. 20. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi. 21. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi. 22. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab 3 kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va obyektни bog'lash (privyazka) uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi. 23. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan obyektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari o'lchamlari bo'lishi va ularning muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi. Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi. 24. Pudratchi geodeziya ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarning joylashi sxemalarini va jadvallarni saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnomani bo'yicha Buyurtmachiga beradi. 25. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi. 26. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va kommunikatsiya tizimlari sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi. 27. Alohida berkitilgan konstruksiyalar va berkitilgan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilishni boshlashdan 2 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va boshqa tegishli tashkilotlarni yozma ravishda xabardor qiladi. 28. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan ma'sul konstruksiyalarni oraliqqabul qilish dalolatnomalari hamda ularning qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi. 29. Pudratchi



Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga yozuv kiritilgan holda keyingi ishlarni bajarishga kirishadi. 30. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlarga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isoblatlasi javobgar hisoblanmaydi. 31. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning yordamchi Pudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelshilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 30 bandining ikkinchi xat boshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno. Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi. 32. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash hududlarni, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarini tozalaydi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydonda qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi. 33. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallanguncha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasiligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashni uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi. Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi. Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini o'z zimmasiga oladi.

#### **VII. Ishlarini qo'riqlash**

34. Pudratchi obyektning Buyurtmachi tomonidan qabul kilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududidagi materiallar, asbob-uskunalar qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi. 35. Tiklangan binova inshootlar shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulklar obyekt qabul qilib olingandan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

#### **VIII. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

36. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar. Mazkurshartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish



muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtda mutanosib ravishda uzaytiriladi. 37. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oyda ko'p vaqtda cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar. 38. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **IX. Qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish**

39. Qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan obyektning foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi. 40. Obyektning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchi yozma bildirishnomasini Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 30 kun mobaynida qabul qilib olinadi. 41. Pudratchi qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish boshlanishidan besh kun oldin mazkur shartnomaning IV-bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibdagi ikki nusxa ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plamini amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak. 42. Qabul qilib olingan paytdan boshlab obyekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

#### **X. Kafolatlar**

43. Pudratchi: - barcha ishlar to'liqlahajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarishni; - loyiha hujjatlari hamda qurilish meyorlari, qoidalar va texnik shartlarga muvofiq bajarilgan barcha ishlar sifatini; - o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbobuskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va kommunikatsiya tizimlari sifatini, ularning loyiha hujjatlariga davlat standartlariga hamda texnik shartlariga muvofiqligini; - ishlarni qabul qilish va obyektning foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilinishni; obyektning foydalanganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi. 44. Obyekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolat muddati tomonlar qurilishi tugallangan obyektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. kafolat muddati kamida 10 yil etib belgilanadi. 45. Agar obyektning foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, uni bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirishi imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. 46. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomalarida qayd etiladi. Agar Pudratchi bajarilgan ishlaridagi nuqsonlar, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning V-bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega. 47. Pudratchi nuqsonlar va



kamchiliklar ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh torgan taqdirda, ushbu masala Toshkent iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

### **XI. Shartnomani bekor qilish**

48. Buyurtmachi: - shartnoma kuchga kiringandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; - ishlarni tugallashning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga kechiktirilganholda, - Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; - Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish meyorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega. 49. Pudratchi: - ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda; - buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda; - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega. 50. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish obyekti bir oy muddatda Buyurtmachiga topshiriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi. 51. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi. 52. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi. 53. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **XII. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

54. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarilmagan taqdirda aybdor tomon: - ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'laydi; - O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi. 55. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatining bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim. 56. Penya to'lashni Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. 57. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortilganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashi rad etgan yoki bosh tortgan summaning 0,2 foizi miqdorida jarima to'laydi. 58. Pudratchi obyektini o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,1 foizi miqdorida penya



to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi obyekt shartnomaviy joriy qiymatining 30 foizidan oshmasligi lozim. 59. Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,1 foiz miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 30 foizidan oshmasligi kerak. 60. Penya to'lash Pudratchini ishlarini bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod etmaydi. 61. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish meyorlari va qoidalariga, ishchihujjatlariga muvofiq bo'lmasa u holda Buyurtmachi qurilish sohasida nazorat inspeksiyasining xulosasi asosida obyektни qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortish, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida undirish huquqiga ega. 62. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalangan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi. 63. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

### **XIII. Nizolarni hal etish tartib**

i 64. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo buladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Chiroqchi tuman iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

### **XIV. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV**

65. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. 66. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

### **XV. Alohida shartlar**

67. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi. 68. Pudratchi qurilish obyektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, yordamchi Pudratchilardan tashqari, bironbir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi. 69. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolangan bo'lsa haqiqiy hisoblanadi. 70.



Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydobo'lishiga olib keladigan har qanday kelishuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgarishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak. 71. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlanganidan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajargan ishlari uchun haq to'lashni kechiktirishga haqlidir. 72. Shartnoma amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrqa qadar. 73. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi. 74. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi. 75. Mazkur shartnoma tegishli g'aznachilik boshqarmasidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng huquqiy kuchga kiradi.

### 9. Taraflarning rekvizitlari va imzolari:

Pudratchi:

"BEGIN COOPERATION  
WITH US" " MCHJ

Chiroqchi Tumani Dam MFY

H/r20208000800859795001

IPOTEKA BANK ATIB

Shahrizabiz filali

MFO 00165 INN 305414674

Rahbar O.Jumaqulov

(vakolatli shaxs F.I.SH. va imzosi)

Buyurtmachi:

Chiroqchi tuman Xalq ta'limi bo'limi

Manzil: Yangi obod ko'chasi


H/r 100022860102427092100075194


STIR: 202005563

Bank kodi (MFO) 00014

H/R: 23402000300100001010

INN: 201122919



	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	FARXOD JUMANOV KARIMOVICH
	Imzolangan sana	23 avg 2022 17:28
	Hujjat kodi	<b>IL3351120365</b>
	Hulosa kodi	<b>EB5524881564</b>



# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G' RISIDA HUQUQIY XULOSA

**1. Loyihamning turi:** Shartnoma

**2. Loyihamning nomi:** Pudrat shartnomasi to'g'risida

Chiroqchi tumani xalq ta'limi bo'limi bilan "BEGIN COORPERATION WITH US" MCHJ o'rtasida qiymati 146.717.367 (Bir yuz qirq olti million yetti yuz o'n yetti ming uch yuz oltmish yetti) so'mni tashkil etgan shartnoma to'g'risida.

**3. Loyiha ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**  
Chiroqchi tumani Xalq ta'lim bo'limi mudiri F.Jumanov 2022-yil 23-avgust.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Chiroqchi tumani Yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti**

2022-yil «23» avgust.



**D.Y.Olmosov**

IJRO.GOV.UZ tizimi orqali ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: EB5524881564



«ТАСДИКЛАЙМАН»



Чирокчи туман халк таълими

булими мудир

Ф.Жуманов

23.08.2022 йил

Чирокчи шахри

Чирокчи туман халк таълими булимида танлов асосида шартнома тузиб жорий тамир ишларини олиб боришни ташкил қилиш комиссиясининг

**ТАНЛОВ КОНКУРС БАЁНИ :**

Танлов комиссия раиси мудир уринбосари Н.Бобоев

**АЪЗОЛАРИ:**

Н Кулдошев	Танлов комиссия котиби
Д.Аликулов	Танлов комиссия аъзоси
О.Эргашев	Танлов комиссия аъзоси
О.Худайбергенов	Танлов комиссия аъзоси
Т.Мухаммадиев	Танлов комиссия аъзоси

**Кун тартибида куриладиган масала:**

Чирокчи туман халк таълими булими тасарруфидаги 4 сонли мактабни Спорт залини ва синфхона полларини жорий таъмирлаш учун утказилган танловда голиб булган " **BEGIN COOPERATION WITH US** " МЧЖ фирмаси билан шартнома килиш ва шартномани тасдиқлаш тугрисида.

Комиссия танлов конкурсга қатнашган вакилларнинг таклифларини кўриб чиқиб, Чирокчи туман халк таълими булими тасарруфидаги 4 сонли мактабни Спорт залини ва синфхона полларини жорий таъмирлаш учун 2 та хусусий корхона қатнашаётганлигини эълон қилди. Улар куйидагича: " **NUR SIFATLI SERVIS** " МЧЖ ва " **BEGIN COOPERATION WITH US** " МЧЖ

Танлов конкурс буйича 2022 йил 19 август кунда лот №22110012136243 протокол эълон куйилгандан кейин 2 та ташкилот узини таклифлари билан

катнашди ва энг юкори балл « **BEGIN COOPERATION WITH US** " МЧЖ олди ва 2 кун мухокамада куйилди ҳамда бошка эътирозлар булмагандан кейин " **BEGIN COOPERATION WITH US** " мчж билан шартнома тузилди.

**ТАНЛОВ КОНКУРС КОМИССИЯ ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. « **BEGIN COOPERATION WITH US** " МЧЖ ғолиб деб топилсин.
2. « **BEGIN COOPERATION WITH US** " МЧЖ кохонаси томонидан таклиф этилган таклифлар кабул килиниб шартнома тузиш учун шартнома булими бошлиги Х.Бойгозиев топширилсин.
3. Ушбу баённома қарорини бажарилишини назорат қилиш бош хисобчи Н.Бекназаров юклатилсин.

Танлов комиссия раиси мудир уринбосари Н.Бобоев

**АЪЗОЛАРИ:**

Н Кулдошев	Танлов комиссия котиби
Д.Аликулов	Танлов комиссия аъзоси
О.Эргашев	Танлов комиссия аъзоси
О.Худайбергенов	Танлов комиссия аъзоси
Т.Мухаммадиев	Танлов комиссия аъзоси



**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 136243 на приобретение 4-сонли мактаб Спорт залини ва синфхона полларини жорий таъмирлаш**

Способ проведения электронный

Дата 19.08.2022

Время рассмотрения 19.08.2022 17:30

Конкурсная комиссия Чирокчи туман халк таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	BOBOYEV NAVRUZBEK HASANOVICH	Sho'ba mudiri	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi
<b>Секретарь комиссии</b>	QULDOSHEV NURULLA UMIROVICH	Shartnoma bo'limi mutaxassisi	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi
<b>Член комиссии</b>	ALIQULOV DEXQONBOY RAMAZANOVICH	Bosh muxandis	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi
<b>Член комиссии</b>	MUHAMMADIYEV TOLMAS ABDURAZZOQOVICH	Bosh iqtisodchi	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi
<b>Член комиссии</b>	ERGASHEV ORIF ESHNAZAROVICH	mutaxassis	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi
<b>Член комиссии</b>	XUDAYBERGANOV OYBEK ABRAYEVICH	Sho'ba metodisti	Chiroqchi tuman xalq talimi bo'limi

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 19.08.2022 года № лота 136243.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 60

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по текущему ремонту нежилых зданий</b>
Подробное описание	4- мактаб спорт зали ва синфхона полини жорий тамирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	146 717 367.00
Стартовая сумма	146 717 367.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Машина ва механизмлар, кичик механизация воситаларига эга булиши тугрисида маълумот. (Ижарага олинган булса Ижара шартномаси ва Машиналарнинг иш жараёнида узлуксиз ишлаши учун кафолат хати.) .  
Курилиш ташкилотининг Ер майдони, ишлаб чиқариш цех- биноларини тасдиқловчи кадастр хужжатлари курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Машина ва механизмлар, кичик механизация воситаларига эга булиши тугрисида маълумот. (Ижарага олинган булса Ижара шартномаси ва Машиналарнинг иш жараёнида узлуксиз ишлаши учун кафолат хати.) .  
Курилиш ташкилотининг Ер майдони, ишлаб чиқариш цех- биноларини тасдиқловчи кадастр хужжатлари курсатилиши лозим

Обязательность: Критично



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	10	Буюртмачи тавсифига кўра	10	Экспертная		
NUR SIFATLI SERVIS MCHJ	10	Машина ва механизмлар	8	Экспертная		

Критерий №2 Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг курилиш соҳасига оид маълумотлари тугрисида диплом копияси, паспорт копияси ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг курилиш соҳасига оид маълумотлари тугрисида диплом копияси, паспорт копияси ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	5	Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг курилиш соҳасига оид маълумотлари тугрисида диплом копияси, паспорт копияси ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим	5	Экспертная		
NUR SIFATLI SERVIS MCHJ	5	Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари	5	Экспертная		

Критерий №3 Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг Курилиш соҳасига оид маълумоти тугрисида дипломи копияси, паспорт копия ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг Курилиш соҳасига оид маълумоти тугрисида дипломи копияси, паспорт копия ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	10	Курилиш ташкилоти статистика маълумотлари, ташкилот низоми, ИНН, рахбарнинг Курилиш соҳасига оид маълумоти тугрисида дипломи копияси, паспорт копия ва рахбарнинг ИНН курсатилиши лозим	9	Экспертная		
NUR SIFATLI SERVIS MCHJ	10	Курилиш ташкилоти статистика	8	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		маълумотлари				

Критерий №4 Пудрат ташкилотининг рейтинги (<https://mc.uz/qurilish-pudrat-tashkilotlari-elektron-reytingi>) В булса 15 балл ва ундан юкорисига 20 балл, ундан паст булса 10 балл, умуман булмаса 0 балл.

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудрат ташкилотининг рейтинги (<https://mc.uz/qurilish-pudrat-tashkilotlari-elektron-reytingi>) В булса 15 балл ва ундан юкорисига 20 балл, ундан паст булса 10 балл, умуман булмаса 0 балл.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SHERALI JUMAQULOV</b>	15	Пудрат ташкилотининг рейтинги ( <a href="https://mc.uz/qurilish-pudrat-tashkilotlari-elektron-reytingi">https://mc.uz/qurilish-pudrat-tashkilotlari-elektron-reytingi</a> ) В булса 15 балл ва ундан юкорисига 20 балл, ундан паст булса 10 балл, умуман булмаса 0 балл.	15	Экспертная		
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	15	Пудрат ташкилотининг рейтинги	10	Экспертная		

Критерий №5 Иштирокчининг шартнома тузиш учун конуний хукукга эга эканлиги, Хисобот чорагида солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздолиги мавжуд эмаслиги ҳақида ҳудудий ДСИнинг маълумотномасининг асл нусхаси

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчининг шартнома тузиш учун конуний хукукга эга эканлиги, Хисобот чорагида солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздолиги мавжуд эмаслиги ҳақида ҳудудий ДСИнинг маълумотномасининг асл нусхаси

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SHERALI JUMAQULOV</b>	15	Иштирокчининг шартнома тузиш учун конуний хукукга эга эканлиги, Хисобот чорагида солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздолиги мавжуд эмаслиги ҳақида ҳудудий ДСИнинг маълумотномасининг асл нусхаси	15	Экспертная		
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	15	Иштирокчининг шартнома тузиш учун конуний хукукга эга	10	Экспертная		

Критерий №6 Охирги бажарган ишлари тугрисида Форма-3 ва объектни топшириш далолатномалари. Ушбу объект қурилиш ишлари билан танишганлиги тўғрисида маълумот ҳамда объектни уз вақтида топшириш тугрисида қафолат хати.



Тип: Текстовое значение

Описание: Охирги бажарган ишлари тугрисида Форма-3 ва объектни топшириш далолатномалари. Ушбу объект курилиш ишлари билан танишганлиги тўғрисида маълумот ҳамда объектни уз вақтида топшириш тугрисида кафолат хати.

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	15	Охирги бажарган ишлари тугрисида Форма-3 ва объектни топшириш далолатномалари. Ушбу объект курилиш ишлари билан танишганлиги тўғрисида маълумот ҳамда объектни уз вақтида топшириш тугрисида кафолат хати.	15	Экспертная		
NUR SIFATLI SERVIS MCHJ	15	Охирги бажарган ишлари тугрисида Форма-3	5	Экспертная		

Критерий №7 Пудратчи ташкилот ўзига нисбатан банкротлик мавжуд эмаслиги тўғрисида хулоса

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчи ташкилот ўзига нисбатан банкротлик мавжуд эмаслиги тўғрисида хулоса

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	10	Пудратчи ташкилот ўзига нисбатан банкротлик мавжуд эмаслиги тўғрисида хулоса	10	Экспертная		
NUR SIFATLI SERVIS MCHJ	10	Пудратчи ташкилот ўзига нисбатан банкротлик мавжуд эмас	10	Экспертная		

Критерий №8 Пудратчининг молиявий холати хисоботи тугрисида хисоботлар (3 йиллик баланс, аудит хулосаси, молиявий натижа)

Тип: Текстовое значение

Описание: Пудратчининг молиявий холати хисоботи тугрисида хисоботлар (3 йиллик баланс, аудит хулосаси, молиявий натижа)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SHERALI JUMAQULOV	5	Пудратчининг молиявий холати	5	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		хисоботи тугрисида хисоботлар (3 йиллик баланс, аудит хулосаси, молиявий натижа)				
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	5	Пудратчининг молиявий ҳолати хисоботи тугрисида хисоботлар	5	Экспертная		

Критерий №9 Малакали ишчи ходимларнинг мавжудлиги, доимий ишловчи (камида 7 нафар) ходимлар руйхати ( my.mehnat.uz порталида QR кодли) мавжуд булиши диплом ва буйрук нусхалари

Тип: Текстовое значение

Описание: Малакали ишчи ходимларнинг мавжудлиги, доимий ишловчи (камида 7 нафар) ходимлар руйхати ( my.mehnat.uz порталида QR кодли) мавжуд булиши диплом ва буйрук нусхалари

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>OOO SHERALI JUMAQULOV</b>	5	Малакали ишчи ходимларнинг мавжудлиги, доимий ишловчи (камида 7 нафар) ходимлар руйхати (my.mehnat.uz порталида QR кодли) мавжуд булиши диплом ва буйрук нусхалари	5	Экспертная		
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	5	Малакали ишчи ходимларнинг мавжуд	5	Экспертная		

Критерий №10 Объект бошлангич нархининг 20% миқдорида айланма маблағлари мавжудлиги ҳақидаги тижорат банки томонидан тасдиқланган маълумотнома ёки айланма маблағлар билан таъминлаш, картотека мавжуд эмаслиги тўғрисидаги тижорат банк маълумотномаси (хужжатлар барчаси асл нусхада булиши ва шарт,)

Тип: Текстовое значение

Описание: Объект бошлангич нархининг 20% миқдорида айланма маблағлари мавжудлиги ҳақидаги тижорат банки томонидан тасдиқланган маълумотнома ёки айланма маблағлар билан таъминлаш, картотека мавжуд эмаслиги тўғрисидаги тижорат банк маълумотномаси (хужжатлар барчаси асл нусхада булиши ва шарт,)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>OOO SHERALI JUMAQULOV</b>	10	Объект бошлангич нархининг 20% миқдорида айланма маблағлари мавжудлиги ҳақидаги тижорат банки томонидан тасдиқланган маълумотнома ёки айланма маблағлар	10	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		билан таъминлаш, картотека мавжуд эмаслиги тўғрисидаги тижорат банк маълумотномаси (хужжатлар барчаси асл нусхада булиши ва шарт,)				
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	10	Объект бошлангич нархининг 20% микдорида	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	146 717 367.00	145 117 367.00 UZS	145 117 367.00	00.00	145 117 367.00	19.08.2022 07:08:10	20.00
<b>ООО SHERALI JUMAQULOV</b>	146 717 367.00	146 717 367.00 UZS	146 717 367.00	00.00	146 717 367.00	18.08.2022 09:56:25	19.78

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>NUR SIFATLI SERVIS MCHJ</b>	60.8	20	80.8
<b>ООО SHERALI JUMAQULOV</b>	79.2	19.78	98.98

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 136243 от 19.08.2022 года на приобретение 4-сонли мактаб Спорт залини ва синфхона полларини жорий таъмирлаш определила победителем:

ООО SHERALI JUMAQULOV  
305414674

и резервный исполнитель: NUR SIFATLI SERVIS MCHJ (306151100)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	BOBOYEV NAVRUZBEK HASANOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ALIQULOV DEXQONBOY RAMAZANOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	MUHAMMADIYEV TOLMAS ABDURAZZOQOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ERGASHEV ORIF ESHNAZAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XUDAYBERGANOV OYBEK ABRAYEVICH	Согласен	



Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"BEGIN COOPERATION WITH US" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning — tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"BEGIN COOPERATION WITH US" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

15.03.2018

590665

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

305414674

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Taraqqiyot, Dam qishlog'i,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, DAVLAT  
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan  
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

